



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - IYUL
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11032,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,2 % ga, o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2023-yil yanvar-iyul

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	11 543,0	11 829,1	286,1
Sharof Rashidov tumani	21 984,7	12 350,6	- 9634,1
Forish tumani	6 218,5	3 310,1	-2 908,4
Jizzax shahri	18 341,3	15 951,9	-2 389,4
Zafarobod tumani	7 503,1	4 854,4	- 2 648,7

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 30,8 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 23,9 % ni va G‘allaorol tumani 22,7 % ni tashkil etdi.

36,2 %

2022- yil

54,3 %

2023- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-iyul

FHI,% da



2023- yilning yanvar-iyul oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10794,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-iyul

93,6 %

2023-yil yanvar-iyul

97,9 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 53,3 % (22,5 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 15,7 % (20,8 %) va quyi texnologiyalisi - 28,8 % (50,2 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 51,1 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 144,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,4 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,7 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,1 % (2022- yilning yanvar –iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti



O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	14 584,4	15 210,0	625,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	36 993,2	6 146,7	-30 846,5
Paxta chigiti, t.	23 150,4	22 787,0	- 363,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	6 200,0	4044,4	-2 155,6
Paxta linti, t.	1 089,7	1 362,0	272,3
Trikotaj polotnolar, t.	1 099,0	1 820,0	721,0

2023- yilning yanvar-iyul oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (83,4 % kamaygan), 15,2 ming tonna paxta tolasi (4,3 % ga oshgan), holda ishlab chiqarilib, 22,8 ming tonna paxta chigiti 1,6 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

16,6 %


Paxta tolasi, t.

104,3 %


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 77,5 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,7 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 144,4 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 78,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 121,3 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1337,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 729,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 47,5 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 96,8 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 762,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 77,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 %, fizik hajm indeksi 144,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 358,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 17,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 132,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 331,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 132,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 300,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 113,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 117,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 229,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 136,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,2 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 37,5 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	181 384,2	90 067,9	-91 316,3
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	3,3	3,9	0,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	43 055,9	45 933,2	2 877,3

2023-yil yanvar-iyul

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	35 605,7	39 843,9	4 238,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 706,4	9 389,9	-3 316,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 12,0 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 19,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6606,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 187,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 59,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-iyul

24,8%

2023-yil
yanvar-iyul

9,3%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-iyul

75,2%

2023-yil
yanvar-iyul

90,7%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,3 % (2022- yil yanvar-iyul oylarida 24,8 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 25,4 % ni va Zarbdor tumani 8,6 % ni, Zomin tumani 17,7 % ni hamda Paxtakor tumani 19,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (162,6 %), Forish tumanida (112,8 %) hamda Zomin tumanida (109,4 %), qayd etildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2667 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 729 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,3 % i) Jizzax shahriga, 362 tasi (13,6 %) Sharof Rashidov tumaniga, 308 tasi (11,5 %) G'allaorol tumaniga, 257 tasi (9,6 %) Zomin tumaniga va 176 tasi (6,6 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil

588 dona

2022- yil

574 dona

2023- yil

450 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil

3717 dona

2022- yil

3905 dona

2023- yil

2 667 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan